O‘ZBEKISTONDAGI TARIXIY DEMOGRAFIK JARAYONLAR DINAMIKASI

Murtazayeva Rahbarxon Hamidovna, O‘zMU professori, tarix fanlari doktori
Mirzaliyev Ulug‘bek Begmurzayevich, GulDPI dotsenti v.b., tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada so‘nggi yillarda O‘zbekistonda kuzatilayotgan tug‘ilishning pasayishi, aholi miqdorini takror ishlab chiqarishdagi muammolar tahlil qilindi. Bu jarayonlarga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va muammolarni bartaraf qilish yo‘llari xususida xulosalar chiqarildi

Kalit so‘zlar: aholi, tug‘ilish, takror ishlab chiqarish, demografiya, migratsiya.

ДИНАМИКА ИСТОРИЧЕСКИХ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье анализируются наблюдаемые в последние годы в Узбекистане снижение рождаемости, проблемы воспроизводства численности населения. Сделаны выводы о факторах, влияющих на эти процессы, и путях решения проблем.

Ключевые слова: население, рождаемость, воспроизводство, демография, миграция.

DYNAMICS OF HISTORICAL DEMOGRAPHIC PROCESSES IN UZBEKISTAN

Abstract. This article analyzes observed in recent years in Uzbekistan birth rate, the number of reproductive problems of the population. The conclusions about the factors influencing these processes and ways of solving problems.

Keywords: population, fertility, reproduction, demography, migration

Jahon amaliyotida u yoki bu mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyot tahlili berilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy jihatdan faol aholini takror ishlab chiqarishning asosiy omili hisoblangan tug‘ilish rivojining xususiyatlari ham e’tiborni tortmoqda. Negaki, tug‘ilishning kamligi – bu faqat bolalar sonining kamligi emas, balki uzoq muddatli istiqbolda tug‘ilishning kamligi – bu iqtisodiyotdagi potensial iste’molchilar sonining pasayishi, mehnatga qobiliyatli yoshlarning kamligi ham demakdir. Tug‘ilishning pasayishida turar joylarga talab pasayadi, tadbirkorlik qaltisliklariga tayyor bo‘lgan kishilar soni ham pasayadi. Zamonaviy jamiyatda insonlar ularning iqtisodiy mahsuldorligi asosida baholanadilar.

Iqtisodiyot tug‘ilishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki bevosita, ko‘plab kanallar orqali ta’sir o‘tkazadi. Tarixan tug‘ilishning evolyusiyasi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan belgilanadi. XIX asrda va XX asrning 70-chi yillarigacha O‘zbekiston hududida ayollar 5-7 ta bola tug‘ardilar. Keyinchalik tug‘ilish pasaya boradi. Tug‘ilishning yuqori darajasi sanoatning rivoji, qo‘riq va bo‘z yerlarning o‘zlashtirilishi bilan ham bog‘liq. Chunki 1956-yildan boshlab O‘zbekistonga butun sobiq Sovet Ittifoqi hududlaridan ko‘plab yoshlarning, ayniqsa, yosh erkaklarning kelishi kuzatildi. Bu jarayon ayniqsa Mirzacho‘lni o‘zlashtirish va Toshkentni zilziladan keyin tiklash paytida kuzatildi. Tug‘ilish darajasining pasayishi esa Ikkinchi jahon urushi yillarida va 1940-yillarning oxirigacha kuzatilgan edi. Demografik disbalans urush, qatag‘onliklar, umrning uzoqligi, hamda ayollarga nisbatan erkaklarning o‘lim miqdorining yuqoriligi sababli sodir bo‘ldi. Bu davrda deyarli barcha industrial mamlakatlarda erkaklar umrining uzoqligi ayollarnikidan kam bo‘lishi kuzatigan. Faqat ayrim istisnolar bor, xolos. Masalan, 1970-yillarda istisnolar qatorida uchinchi dunyo mamlakatlari – Shri Lanka, Hindiston, Pokiston, Kampuchiya, Yuqori Volta keltirilgan edi. Bu mamlakatlarda industrlashtirish hali erkaklar hayoti uchun vayronkor bo‘lgan natijalar keltirmagan edi.

Tug‘ilishning va aholini takror ishlab chiqarishning pasayishi muammosiga doir ikkita asosiy nuqtai nazar mavjud. Birinchi yondashuv – tug‘ilishning pasayishi o‘sib borayotgan ehtiyojlar va ularni qondirish imkoniyatlari o‘rtasidagi uzilish bilan izohlanadi. Ikkinchi yondashuv asosida moddiy va madaniy omillarning tug‘ilishga ta’sir ko‘rsatishi konsepsiyasi yotadi. Moddiy omil va madaniy omil qarama-qarshi yo‘nalishlarda amal qilishadi. Hayot darajasining yuksalganida moddiy omil bolalarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga oid moddiy imkoniyatlarni tavsiflaydi. Ikkinchi omil esa, yangi talablarni yuzaga keltirishi tufayli, ehtiyojlarning butun tizimini o‘zgarishiga bog‘liq. Ana shu ikki omilning birgalikda amal qilishi tug‘ilish darajasining yakuniy o‘zgarishlariga olib keladi. Hayot darajasining ko‘tarilishi bilan tug‘ilish darajasi tushib qoladi, chunki daromadlarning o‘sishi bilan madaniy daraja ham o‘sadi, madaniy darajaning o‘sishi bilan esa ota-onalarning bolalarni tarbiyalash borasidagi axloqiy mas’uliyati ham oshib boradi.

So‘nggi yillarda bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida aholi turmushining barcha sohalarida ulkan o‘zgarishlar yuz berdi. O‘zbekiston iqtisodiyotining isloh qilinishi va ushbu jarayon bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, ishlab chiqarishning va aholi daromadlarining pasayishi va boshqa holatlar demografik jarayonlarga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Olimlar demografik xulqka ta’sir ko‘rsatuvchi siyosiy, madaniy, diniy, tibbiy, biologik, iqlimiy va boshqa ko‘plab omillar orasida ijtimoiy-iqtisodiy omillar alohi o‘rin tutib, demografik xulqka o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi, deb ta’kidlashmoqda. Biroq, bu omillarni demografik jarayonlarning sabablari bilan moslab bo‘lmaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda aholining tabiiy va mexanik harakati o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik juda murakkab va hanuz to‘liq o‘rganilmagan. O‘tish davrida yuz bergan inqiroziy hodisalar mehnat bozoridagi vaziyatni murakkablashtirdi hamda aholining bandlik darajasining qisqarishi va ishsizlikning

kuchayishiga olib keldi. Aholining qashshoqlik, kambag‘allik darajasi keskin ko‘tarildi. Oilalarning iste’molchilik tuzilmasi yomonlashdi. Buning sababi oilaviy byudjetlardagi eng oddiy ehtiyojlarga, avvalambor oila a’zolarini oziq-ovqat bilan ta’minlashga qilinayotgan sarf-harajatlar ulushining keskin ko‘tarilishidan iboratdir. Ko‘pchilik uy xo‘jaliklarining byudjetlari amalda tirikchilik byudjetiga aylanib qoldi-ki, buning natijasida oilalarning ko‘plab funksiyalari (shu jumladan, reproduktiv funksiyasi ham) ma’yuslik holatiga tushib qolishdi va, o‘z moddiy asosini yo‘qotib, inqirozga yuz tutishdi.

Rossiya va boshqa MDH davlatlaridagi demografik vaziyatni, shuningdek, Yevropa mamlakatlaridagi demografik vaziyatni olimlar inqirozli yoki halokatli deb baholashmoqda. Ikkinchi jahon urushidan keyin birinchi marta, 1992 yildan boshlab (ya’ni iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichidan boshlab), MDH mamlakatlarida, shu jumladan O‘zbekistonda ham, aholi soni qisqara boshladi. Misol uchun, Rossiyadagi aholi soni 1992-2008 yillar davrida 6505, 9 ming kishiga qisqardi.

Aholi sonining qisqarishi tabiiy kamayish (-12258, 5 ming kishi) va migrasion o‘sish (+5752, 6 ming kishi) hisobiga sodir bo‘ldi [1]. Bunda shahar aholisi sonining qisqarish tezligi qishloq aholisinikiga qaraganda ancha yuqoriroqdir. Bunday vaziyatning xavfi quyidagi iqtisodiy-geografik xususiyatlar bilan belgilanishi mumkin:

- mamlakat hududining ko‘lamdorligi;
- aholi joylashuvining va hududning xo‘jalik o‘zlashtirilganligining bir tekis emasligi,
- kuchli tabiiy-resurs potensiali;
- aholi tarkibining ko‘p millatliligi;
- mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bo‘yicha differensiatsiyasi.

Ma’lumki, tug‘ilish jarayonlari aholini takror ishlab chiqarishning asosiy tarkibiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. So‘nggi yillarda esa ko‘pchilik mamlakatlarda tug‘ilishning qisqarib ketishi kuzatilmoqda. Ko‘pchilik demograf olimlarning bahosiga ko‘ra, tug‘ilishning pasayish jarayonlari 1960-yillardan boshlanganki, bunda “farzandlar avlodi ota-onalar avlodidan miqdor jihatidan kamroq bo‘lib qoldi” [2]. Bu davrdagi tug‘ilishning pasayishidagi sabablar shuki, 1960-yillar o‘rtalaridan boshlab reproduktiv yoshdagi ayollar tuzilmasi o‘zgardi, bu yillarda reproduktiv yoshga urush davrida va urushdan keyingi dastlabki yillarda tug‘ilgan kamsonli ayollar avlodi kirib kelgan edi. Ular asosan faol mehnat faoliyati, yuqori ta’lim va kasbiy maqomga erishishni, turmush darajasini yuksaltirishni maqsad qilib olgan edilar. Ayniqsa, shaharlardagi ayollarning reproduktiv maqsadlari pasayib, ular kambolali oila qura boshladilar. Bundan tashqari, Ikkinchi jahon urushi davrida ko‘plab erkak aholi xalok bo‘lgani va tug‘ilishlar soni qisqargani tufayli, rasmiy nikohlar soni qisqardi va o‘ziga xos demografik inqiroz boshlangan edi.

1980-yillarga kelib, demografik siyosatning choralari natijasida tug‘ilish o‘sdi, biroq 1980-yillar oxiriga kelib reproduktiv yoshdagi ayollarning ko‘psonli avlodi

o‘rniga 1960-yillarda tug‘ilgan kamsonli avlodi keldi. Buning natijasida, 1992-yilda tug‘ilish keskin pasaya boshladi (3).

O‘tish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o‘ziga xos xususiyatlar tug‘ilish miqdoriga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Birinchidan, iqtisodiy qiyinchiliklar va beqarorlik aholi turmush darajasi va sifatini pasaytiradi, hamda “rasional prokreasion xulq iqtisodiy nazariyasiga muvofiq” bolalarni boqish va tarbiyalashga sarflanadigan qo‘shimcha harajatlarni kamaytirish maqsadida tug‘ilishning pasayishiga olib keladi. Demograf-olim A.Sovining fikricha, “agar bevosita ishsizlik tahdidiga uchrayotgan aholi qismida nikoh munosabatlari pasaysa, unda tug‘ilish miqdori xatto ishsizlik bevosita qamrab olmagan ijtimoiy guruhlarda, masalan, davlat xizmatchilari guruhida, ham pasayishi mumkin”. Shuningdek, ko‘pbolali oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, bolalar nafaqasi hajmining o‘sishi yoki pasayishi ham tug‘ilishga ta’sir ko‘rsatadi.O‘tish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlar daromadning yashash uchun zarur bo‘lgan minimumga to‘g‘ri kelmasligiga olib keldi, aholining katta qismi turmushni yaxshilash va oilani moliyaviy ta’minlash muammolariga duch kelib, ularni yaxshilash maqsadida, bolalar tug‘ilishini chetga surib qo‘yishdi. Bu borada demograf B. Ya. Smulevich: “...aholini takror ishlab chiqarish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatuvchi xilma-xil omillarga qaramay, bu jarayonlarni belgilab beruvchi asosiy omillar bo‘lib ishlab chiqarish munosabatlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan ta’minlanganligi, ertangi kunga ishonchning mavjudligi, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli hisoblanadi”, degan edi [4].

Aholi tug‘ilishiga turmush darajasining yomonlashuvi, daromadlarning pasayishi, ishsizlik ham ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, reproduktiv maqsadlarni shakllanishida uy-joy bilan ta’minlanganlik ham katta ahamiyat kasb etadi. Yaxshi uy-joy bilan va turmush sharoitlari bilan ta’minlanganlik aholi reproduktiv xulqiga ijobiy ta’sir ko‘rsatsa-da, bu omil ham daromadlar darajasiga borib taqaladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda qishloq joylarida uy-joylarning qurilishi, aholini yer uchastkalari bilan ta’minlanishi demografik vaziyatning ham yaxshilanishiga olib kelmoqda.. Demak, aholining uy-joy bilan ta’minlanishi, uning narxi daromadlarga mos kelishi tug‘ilishning o‘sib borishida muhim ijtimoiy va moddiy omil hisoblanadi.

Aholi turmushidagi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni (daromadlar o‘sishi, uy-joy sharoitlarining yaxshilanishi) yaxshilash sharti bilan tug‘ilishning ko‘payishini ma’lum darajada ta’minlash mumkin hamda reproduktiv maqsadlarni amalga oshirilishini to‘xtatib turayotgan to‘siqlarni bartaraf qilish mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston aholi miqdori bo‘yicha Markaziy Osiyodagi eng yirik davlat hisoblanadi. O‘zbekiston ulushiga mintaqadagi aholi umumiy miqdorining 44% to‘g‘ri keladi. L. Maksakovaning ta’kidlashicha, O‘zbekiston, boshqa mamlakatlarga qiyoslaganda, 1,1 - 1,2% doirasidagi har yilgi aholi ko‘payishiga ega bo‘lgan ko‘payayotgan aholiga ega bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda demografik o‘sishda sekinlashish kuzatilmoqda [5]. Hozirgi kunda aholining o‘sish sur’atlari 1990-yillar boshlariga qaraganda ikki barobar past, 1980-yillarga qaraganda esa 2,5 barobar

pastroq. Bu hol respublikada aholi tug‘ilishining pasayishi va migrasion ko‘chishlarning o‘sishiga bog‘liqdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda tug‘ilish pasayishi kuzatilsa ham, umuman olganda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish rejimi, ayniqsa qishloq joylarida, saqlab qolinmoqda. Kelgusida esa, O‘zbekiston aholisining reproduktiv rejalari bitta farzandlikka emas, balki ikki-uch va xatto to‘rt bolali oilalarga qaratilgan. Mamlaktimizda aholi miqdor ko‘rsatkichiga migratsiya ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Hisob-kitoblarga qaraganda, hozirgi migrasion oqim har yili respublika aholisining 0,3%ni olib ketmoqda. Asosan, aholining etnik migratsiyasi sodir bo‘lib, ruslar, nemislar, qrim tatarlari, yahudiylar, ukrainlar, qozoqlar, qirg‘izlar o‘z tarixiy vatanlariga ko‘chib ketishmoqda. Shuningdek, ommaviy mehnat migratsiyalari ham aholining oilaviy tarkibiga, uning jins va yosh tuzilmasiga, aholini takror ishlab chiqarish rejimiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, chunki mehnat migratsiyasida asosan yosh va o‘rta yoshdagi erkaklar va ayollar ishtirok etishmoqda.Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institutining (Toshkent sh.) ilmiy xodimi L. A. Sxayning ko‘rsatganidek, 1991-2005-yillarda tug‘ilishning kamayishi, o‘lim darajasining pastligi (har 1000 kishiga 6 holgacha), migratsiya manfiy saldosi o‘sishi muhitida, aholi soni o‘sishi sur’atlarining 2,6 % dan 1,2 % gacha pasayishi kuzatilgan. 2006-2013 yillarda esa 20-29 yoshli ayollar soni ko‘paygani tufayli (ularning ulushiga ko‘p tug‘ishlar to‘g‘ri keladi), tug‘ishlar soni va tug‘ilishning umumiy koeffisiyenti o‘sib borgan. Bunda o‘limlar darajasi pastligicha saqlanib qolgan (1000 kishiga 5 holgacha) va migratsiya oqimi barqarorlashib, aholi o‘sishi sur’ati yiliga 1,7 % gacha ko‘tarilgan [6]. L. Sxayning fikricha, O‘zbekistonda tug‘ilish dinamikasining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, istiqbolda mamlakatimizda tug‘ilishning nisbatan yuqori darajasi saqlanib qoladi va asta-sekin tug‘ilishlar soni optimal dajaragacha (har 1000 kishiga 17-18 tug‘ilish) pasayib borishi mumkin [6].

Xulosa tariqasida quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

O‘tish davrida o‘zgarayotgan iqtisodiyotning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari va aholida reproduktiv maqsadlarga oid stereotiplarning o‘zgarishi oilalardagi reproduktiv xulq va qarashlarga ma’lum ta’sir o‘tkazdi. Buning natijasida aholi reproduktiv potensialini amalga oshirish imkoniyatlarini cheklandi hamda tug‘ilish darajasi pasaydi.

Shunga qaramay, O‘zbekiston Respublikasidagi tug‘ilish potensiali yetarlicha yuqori bo‘lib qolmoqda, biroq uni amalga oshirish darajasi past. Demografik jarayonlarning rivojlanishida bunday ahvol davom etaversa, istiqbolda tug‘ilishning yanada qisqarishi kuzatilishi mumkin.

Tug‘ilishni yuksaltirishga qaratilgan demografik siyosatdagi chora-tadbirlarni ishlab chiqishda demografik tuzilma va aholining reproduktiv xulqi omillarining ularni tug‘ilish darajasiga ko‘rsatayotgan ta’siri borasidagi o‘zaro nisbatini hisobga olish zarur hamda aholida mavjud bo‘lgan reproduktiv potensialning amalga oshirilish darajasini ko‘tara oladigan reproduktiv xulqka faol ta’sir ko‘rsatish kerak bo‘ladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishning darajasi va xarakteri o‘rtasida nafaqat bevosita, to‘g‘ri aloqa, balki teskari aloqa ham mavjud. Bir tomondan, iqtisodiyotning ahvoli (birinchi navbatda – daromadlar darajasi orqali) tug‘ilishga ta’sir ko‘rsatsa, boshqa tomondan, aholida demografik xulqdagi o‘zgarishlar aholi soniga (miqdoriga), uning jinsiy va yoshga oid tuzilmasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa yaqin kelajakda iqtisodiyotga noqulay ta’sir ko‘rsatishi mumkin, chunki bugun tug‘ilmagan farzandlar – bu ertangi mehnat resurslarining yetishmasligi (defisiti) demakdir. Shuning uchun ana shu muammoning o‘tkirlashmasligi uchun, uni muvaffaqiyatli hal qilish lozim.

Bu borada O‘zbekistonda 2016-yilning “Sog‘lom ona va bola” yili deb e’lon qilinishi muhim voqea bo‘ldi. Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan chora-tadbirlar dasturida 2016-yilda, aholi o‘rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sanitariya-gigiyena sohasidagi ishlarni yanada kuchaytirish, homilador ayollarni asrab-avaylash, yosh onalar va bolalarni talab darajasida parvarish qilish va boshqa ishlar amalga oshirildi. Bularning barchasi esa oilaning sog‘lomligiga olib keladi. Oila sog‘lom bo‘lsa, aholining reproduktiv potensiali ijobiy holatga keladi. Davlatimiz aholini bebaho kapital sifatida baholaydi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati tomonidan aholi ijtimoiy muhofazasini mustahkamlash borasida ma’lum ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, sog‘liqni saqlash sohasidagi siyosat mamlakatimizda inson kapitali darajasini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сови А. Общая теория населения. – М., 1977. Т. 2. – С. 193.

2. Захаров О. Д., Акопян А. С., Харченко В. И. Эволюция рождаемости в России во II половине XX века: история, современность и перспективы // Проблемы прогнозирования. 2002. № 6. – С. 94-106;

3. Ионцев В. А., Алешковский И. А. Природа и факторы демографического кризиса в современной России // Национальная идентичность России и демографический кризис : материалы Всероссийской научной конференции (20-21 октября 2006 года). – М., 2007. – С. 111.

4. Россинская Г. М., Скрябина Я. А. Влияние особенностей трансформационной российской экономики на репродуктивное поведение и рождаемость // Демографические исследования. № 12. www.demographia.net/

5. Смулевич Б. Я. Критика буржуазных теорий и политики народонаселения. – М., 1959. – С. 74.

6. Максакова Л. Демографический путь Узбекистана // Демоскоп weekly. 01.03.2006.

7. Цхай Л.А. К вопросу о рождаемости в Узбекистане // Демоскоп weekly. - № 617 – С. 618. 3-16 ноября 2014 года. [Электронный ресурс] http://www.demoscope.ru/weekly/2014/0617hp/analit02.p